

## Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning psixologik jihatlari

Xonqa tumani IIB boshlig'i podpolkovnik

Allaberganov Ixtiyor Baxtiyorovich

**Annotatsiya:** Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish psixologik jihatlari zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyatga ega. Axborot asrida yosh avlodning axborot bilan ishlash ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash qobiliyati va axborotdan oqilona foydalanish mahoratini rivojlantirish zarur. Ushbu tadqiqotda yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish jarayonida psixologik omillar, shu jumladan, shaxsiy xususiyatlar, motivatsiya va ijtimoiy muhitning roli tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida axborot madaniyatini oshirish uchun samarali metodlar va strategiyalar taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** axborot madaniyati, psixologik jihatlar, yoshlarda rivojlanish, tanqidiy fikrlash, ta'lim metodlari, ijtimoiy muhit, motivatsiya, axborotni qayta ishlash, shaxsiy xususiyatlar

Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan beri inson axborot olish, tarqatish va undan foydalanishga ehtiyoj sezib keladi. Albatta, qadimda bu jarayon juda sodda ko'rinishga ega edi. Dunyo taraqqiy etgan sari u murakkablashib, axborotning jamiyatdagi o'rnini yanada oshdi. Ayni paytda mutaxassislar har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan birga mudofaa qudrati ham axborot tizimi va texnologiyalariga bog'liqligini ta'kidlashmoqda. Shu o'rinda jamiyat hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirish, elektron kommunikatsiyalar, elektron ko'rinishdagi ma'lumotlar bazasi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ijobiy natijalar bilan bir qatorda, axborot tizimlariga buzg'unchilik maqsadida ta'sir etishni ko'zda tutuvchi yangi "axborot quroli"ning ta'siri kuchayishiga olib kelayotganini aytib o'tish joiz. Bu esa o'z navbatida, mamlakatimizning axborot resurslari va telekommunikatsiya tarmoqlarini noqonuniy maqsadlarda ishlatishga qarshi himoya choralarini ko'rish va ularning benuqson faoliyatini ta'minlashga da'vat etmoqda<sup>1</sup>.

Axborot oqimi o'z mohiyatiga ko'ra ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Uning qanchalik yoshlarimizga ta'sir qilishi uning oldiga qo'yilgan maqsad

<sup>1</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-1106870>



sari puxta yo‘naltirilganligiga bog‘liq. Tabiiyki, axborot oqimining salbiy ta‘siri esa ularda shakllangan mafkuraviy himoya tizimining mukammalligi omiliga bog‘liq.

Malakali mutaxassislar tayyorlashning eng muhim talabi, bu ularni axborotlar bilan ishlash ko‘nikmalarining shakllantirish bilan bog‘liq. Axborotlarni qabul qilish ta‘lim muassasalarida o‘qitilayotgan fanlardan, internet tarmog‘i va ommaviy axborot vositalari orqali o‘zlashtirishlari mumkin. Shuning uchun ham bu kanallardan kelayotgan axborotni yoshlarni ta‘lim-tarbiyasiga ta‘sirini chuqurroq o‘rganish muhim sanaladi. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarining axborot xuruji kuchayib, manipulyatsion jarayonlarning keng yoyilishiga sabab bo‘lmoqda. Bu kabi tahdidlardan o‘z vaqtida ogoh bo‘lib, unga qarshi maxsus immunitetni hosil qilish — davr talabi. Bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan urush-talofat, buzg‘unchilik, inqilobiy harakatlar va terrorchilikka axborot xuruji katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Chunki axborot tom ma‘noda yangi asrning eng qimmat materialiga aylanmoqda. OAVning axborot yetkazish imkoniyati va kuchidan g‘arazli niyatda foydalanuvchi egoistlar, buzg‘unchi kuchlar axborotini o‘z manfaatlariga xizmat qildirishga urinmoqda. Ya‘ni ba‘zi bir materiallar ularning vayronkor mafkurasi bilan yo‘g‘rilmqda. Bilamizki, globallashuv jarayonida arzimas, ahamiyati katta bo‘lmagan bir xabar ham ba‘zan katta tarixiy voqea va global hodisaga sabab bo‘lishi mumkin.

Demak, insonning axborot sohasidagi xavfsizligini ta‘minlash uchun fuqarolarning axborot madaniyatini yuksaltirish, ya‘ni ularga axborotni saralash va undan ongli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Axborotni tanlash va undan unumli, to‘g‘ri foydalanish esa insonning ong darajasi bilan bog‘liq. Ong darajasi bilim darajasiga, bilim darajasi esa o‘z navbatida bilishga, ya‘ni reallik va borliqdagi voqea-hodisalar mazmun-mohiyati bilan vobastadir. Ko‘r-ko‘rona yoki atayin qorani oqqa bo‘yab ko‘rsatish mavjud holatni maqsadli o‘zgartirishga olib keladi.

Axborot maydonida ham o‘z shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab, axborotni noxolis, noaniq yetkazilish axborot xurujining debochasi, desak, xato bo‘lmaydi. Shuning uchun birinchi navbatda, axborot yetkazuvchi shaxs xolislik, aniqlik va tezkorlikka tayanishi, axborot oluvchi esa uni mutlaqlashtirmasdan, o‘z shuuri darajasida tahlil qilishi, so‘ng qabul qilishi, ishonch bildirishi darkor. Agar biz axborot olish madaniyatini shakllantirsak, milliy g‘oyamiz va ma‘naviy merosimizga tayanib faoliyat olib borsak, axborot xurujiga qarshi immunitetni kuchaytirgan bo‘lamiz.



Mamlakatimizda bu borada tizimli va izchil ishlar amalga oshirilayotir. O‘tgan davrda so‘z va axborot erkinligini ta‘minlash bo‘yicha qonunchilik bazasi yaratilib, aholi, ayniqsa, yoshlarning axborot manbalari, jumladan, internetdan foydalanish imkoniyati kengaymoqda. Milliy axborot makonini boyitish va to‘ldirish, mahalliy ijtimoiy tarmoqlar va boshqa zamonaviy axborot resurslarini shakllantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Ayni paytda Ziyonet axborot tarmog‘i yoshlarning ta‘lim, ilm-fan, madaniyat va ma‘rifat sohalariga oid keng qamrovli yangiliklardan boxabar bo‘lishi, dolzarb axborotlardan samarali foydalanishida keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Talaba –yoshlarni axborot madaniyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarini o‘rni beqiyosdir.

Mamlakat ijtimoiy siyosiy hayotida ro‘y bergan tub sifat o‘zgarishlari ommaviy axborot vositalari oldiga ham mutlaqo yangi talablarni qo‘ydi. U ham bo‘lsa, mamlakat fuqarolari o‘rtasida keng qamrovli milliy istiqlol g‘oyalari targ‘ibot qilish asosida ularni kelajagi buyuk O‘zbekistonni yaratishdek olijanob ishga safarbar etishdan iborat edi. Bu ulug‘vor va olijanob vazifalarni amalga oshirish uchun ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini yaratish talab qilinadi.

2023-yil 1-yanvargacha bo‘lgan statistik ma‘lumotlarga qaraganda O‘zbekistonda kontent va ommaviy axborot vositalari sektorining umumiy hajmida eng ko‘p ulushni dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo‘yicha xizmatlar – 39,6 %, boshqa axborot xizmatlari – 28,3 %, shuningdek, kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo‘yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari – 22,1 % ni egallaydi<sup>2</sup>.

«To‘rtinchi hokimiyat» hisoblangan ommaviy axborot vositalari mustaqillik sharoitidan turli xil fikrlar, rang-barang qarashlar va yondashuvlarga tobora keng yo‘l ochib bermoqda. Hayotda yuz berayotgan yangilanish va o‘zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg‘otmoqda, tobora xolislik, adolat va haqqoniyat tamoyillari asosida voqea va hodisalarga o‘z munosabatini bildirmoqda. Milliy istiqlol hur fikrlilikni barqaror etishning yangidan-yangi imkoniyatlarini yaratdi. Jumladan, vaqtli matbuot turlari va sonlari ko‘paydi. Mustaqil nashrlar o‘z muassislari g‘oyalari va dasturlari yo‘nalishlari doirasida mustaqil ish olib boradilar.

<sup>2</sup> <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/33468-kontent-va-ommaviy-axborot-vositalari-sektori-2>



Islahotlar va yangilanishlarga o‘z munosabatlari, muammolarga yondashish usullari bor. Biroq, yagona maqsad - istiqlol taqdiri, mamlakat va xalq istiqboli ularni birlashtirib turadi.

Ommaviy axborot vositalari hayotimizga kun sayin chuqurroq kirib borayotganini hozir hech kim inkor etolmaydi. Bu jarayonni tabiiy hol, deb qabul qilmoqdamiz.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalarida o‘ziga xoslik paydo bo‘ldi. Gazetalar, jurnallar, radioeshittirish va teleko‘rsatuvlarda bevosita respublikaning mustaqilligiga bag‘ishlangan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy-ma‘rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan mavzularga keng o‘rin berilgan.

Barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, ularni ma‘naviy va jismoniy kamol toptirish, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, turli yot g‘oyalar va past saviyali “ommaviy madaniyat” ta’siridan asrash maqsadida O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi teleradiokanallarda turkum teleradiodasturlar faoliyatini tashkil etish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy reklama va targ‘ibot roliklarini tayyorlash va namoyish etish, yosh jurnalistlar ishtrokida “Milliy internet-jurnalistikasini rivojlantirishning dolzarb masalalari” mavzusida ilmiy-amaliy seminar o‘tkazish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va milliy Internet segmentini rivojlantirish sohasida faoliyat yuritayotgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “MIT.uz” – milliy internet tanlovini o‘tkazish kabilar rejalashtirilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamon talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashimiz uchun biz ta’lim jarayonida axborot va ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mustahkam o‘zlashtirilishiga erishmog‘imiz davr talabidir. Yoshlar bizning kelajagimiz. Ularni axborot madaniyatini shakllantirish orqali maqsadimizga erishamiz.

